


Davlatimiz rahbarining topshiriqlari bilan yurtimizdagi barcha mahallalar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha dasturlar qabul qilinib, keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, viloyatimizda bu kabi tadbirlar davom etmoqda. Ushbu belgilangan dasturlar ijrosini ko'zdan kechirish maqsadida viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz tumani "Nurli diyor" mahallasida bo'ldi.



Mahallada joriy yilda 2 kilometrdan ortiq ichki yo'llar asfaltlandi. Hozirda yana 1,2 kilometr ichki yo'l asfaltlash uchun tayyorlanmoqda. Mas'ullarga yo'llarni sifatli ta'mirlash, elektr energiya ta'minotini yaxshilash maqsadida mavjud transformator punktini katta quvvatlisiga almashtirish, obodonlashtirish ishlarini izchil davom ettirish topshirig'i berildi.

Shuningdek, viloyat rahbari ayrim xonadonlarda bo'lib, aholining turmush sharoitlari, tomorqadan foydalanish holati bilan tanishdi va fuqarolar bilan suhbatlashdi. Yerdan unumli foydalanilayotganligi, deyarli har bir xonadonda issiqxonalar tashkil etilganligi va uzum voishlari qilinganligi e'tirof etildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)